


# BOLALAR ENSİKLOPEDIYASI





# **BOLALAR ENSIKLOPEDIYASI**

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent – 2014



UO'K: 030-053.5  
KBK 92+83.8 ya 2  
B74



### **6-nashri**

ISBN 978-9943-07-165-0

- © «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-y.
- © «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2002-y.
- © «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007-y.
- © «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2009-y.
- © «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2012-y.
- © «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2014-y.



## *Aziz bolajonlar!*

*Siz mamlakatimizning baxtiyor farzandlarisiz. Bolaligingiz, yoshligingiz mustaqillik davrida o'tmoqda. Yurtimiz egasi, xalqimiz kelajagisiz. Demak, yoshlikdan bilimdon, tadbirkor, uddaburon bo'lib kamolga yetishingiz lozim. Buning uchun Sizda barcha imkoniyatlar mavjud. Bilim olishga, kasb-hunar egallashga istak bo'lsa, bas.*

*Insoniyat XXI asrda yashamoqda. Bu asrda davlatimiz yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan joy olishi lozim. Buning uchun diyorimiz odamlari yetuk bo'lishi kerak. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, kelajakda O'zbekiston yuksak taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim.*

*Qo'lingizdagi kitob ana shunday farzandlarni tarbiyalab yetishtirishga hissa qo'shish maqsadida yaratildi. Bu kitobdan siz o'zingizni qiziqtirgan ko'plab savollarga javob topasiz.*

*Odatda, kitob bir boshdan, sahifama-sahifa o'qib boriladi. Bu yerda hammasini bir boshidan o'qish shart emas. Balki, sizga kitobning oxiridan biror zarur narsani o'qish kerak bo'lib qolar, so'ngra biror narsani qidirib topishga to'g'ri kelar. Agar xohlasangiz, kitobning istalgan joyini ochib, suratlarini tomosha qilishingiz mumkin.*

*Qiziq-ku! – deya hayron bo'lishingiz mumkin. –Bu qanday kitob ekanki, uni oxiridan ham, o'rtasidan ham, boshidan ham o'qib ketilaversa....*

*Shoshilmang! Kitobni bir daqiqa chetga olib qo'ying va diqqat bilan atrofga nazar tashlang. Tevarak-atrofdan qancha qiziq narsalar bor. Derazadan yer ham, osmon ham ko'rinib turibdi. Eshikdan tashqariga chiqsangiz, e'tiboringizni yana ham ko'proq narsalar tortadi. Odamlar ketyapti. Kimdir gugurt qutisidan sal kattaroq buyumni qulog'iga tutib kim bilandir gaplashmoqda. Daraxt barglari shitirlamoqda. Yerning sun'iy yo'ldoshi parvoz qilmoqda. Qushlar gir aylanib uchmoqda. Uylar qad ko'tarmoqda. Soatlar chiqillamoqda. Sizning yuragingiz urmoqda. Radioning ko'rinmas to'lqinlari taralmoqda....*

*Bularning hammasini bilgingiz keladi, savollar qalashib ketadi. Kim? Nima? Qayerda? Qachon? Nima uchun?*

*Albatta, dunyodagi hamma narsani bilish qiyin. Siz ulg'ayasiz, maktabga borasiz, yaxshi kitoblarni o'qiyasiz, musiqa va qiziqarli radioeshittirishlarni*

tinglaysiz, kinoteatr, televizor, videodagi filmlarni tomosha qilasiz. Turli odamlar bilan suhbatlashganingizda ulardan ancha-muncha narsani o'rganasiz. Asta-sekin juda ko'p narsani bilib borasiz va ayrim savollarga o'zingiz javob bera olasiz. Hozircha esa, ko'plab muhim savollarga javoblarni qo'lingizdagi kitobdan bilib olasiz.

Kattalarning «Ensiklopediya» deb ataluvchi ajoyib kitoblari bor. Biror narsani bilish, tekshirish kerak bo'lib qolganda ensiklopediyani o'qiydilar.

Siz, yaxshisi, ushbu kitobning «E» harfi («Ensiklopediya» so'zi boshlangan harf)da joylashgan maqolalar orasidan «Ensiklopediya»ni topib o'qib chiqing. Ensiklopediya kitobi qandayligini bilib oldingizmi?! Qo'lingizdagi kitob ham ana shunday kitoblardan. Faqat u siz uchun mo'ljallangan. Shuning uchun uni «Bolalar ensiklopediyasi» deb atadik. «Bolalar ensiklopediyasi» – Sizning birinchi ensiklopediyangiz.

Kitobdagi barcha maqolalar alifbo tartibida, ya'ni sinf jurnalida «A» dan «Ch» gacha sizning va o'rtoqlaringizning familiyalari qanday yozilgan bo'lsa, shunday joylashgan.

Masalan, sizni «Buxoro» maqolasi qiziqtiradi. 79-betdagi «B» harfi mundarijasiga qarang. U yerda kitobdagi «B» harfi bilan boshlangan hamma maqolalar ko'rsatib qo'yilgan. «Buxoro»ni topdingizmi? Kitobning qaysi betida u haqida hikoya qilingan bo'lsa, shu sahifani ochamiz. Mana maqolaning o'zi. Unda ko'hna Buxoro haqida, uning ajoyib tarixi, nodir yodgorliklari to'g'risida hikoya qilinadi.

Xuddi shu tarzda siz, masalan, «Amir Temur», «Yorug'lik», «Jirafa», «Zilzila», «Ibn Sino», «Yo'lbars» «Osiyo» kabi maqolalarni topishingiz mumkin.

Muayyan bir so'z haqida inson bilgan barcha bilimlarni kichik hikoyaga joylashtirib bo'lmasligini bilasiz. Shuning uchun hikoyani o'qib bo'lib, aka yoki opalaringizga, ota-onangizga murojaat eting. Ular bizning hikoyamizni o'z bilimlari bilan to'ldiradilar.

Maqoladagi ayrim so'zlar qiya harflar – kursiv bilan terilgan. Demak, bu tushuncha to'g'risida yana alohida maqola bor. Alifbo bo'yicha siz uni kitobdan osongina topasiz.

Oxirgisi. Kitobning xaritalarida qisqartma so'zlar uchraydi. Ularni esda saqlang: km – kilometr, m – metr, sm – santimetr, mm – millimetr, kv. km – kvadrat kilometr.

Endi «Bolalar ensiklopediyasi» qanday tuzilganligi va undan qanday foydalanish kerakligini bilasiz. O'zingizni qiziqtirayotgan so'zlarni so'rang, izlang. Zero, izlagan topadi.



# A



Abdulla Qahhor  
Abdulla Qodiriy  
Abdullayev Habib  
    Muhamedovich  
Aeroport  
Afg'oniston  
Afrika  
Afrosiyob  
Ahmad Farg'oniy  
Akademik litsey va  
    kasb-hunar kolleji  
Akkumulator  
Akropol  
Akula  
Akvarel  
Akvarium  
Albaniya  
Aleksandr  
Alisher Navoiy  
Alpinizm  
«Alpomish»  
Aluminiy  
Amerika  
Amerika Qo'shma  
    Shtatlari  
Amir Temur  
Amudaryo  
Andersen Gans  
    Kristian  
Andorra - q. *Mitti*  
    *davlatlar*  
Angliya  
Anhor  
Antarktida  
Argentina

Arifmetika va algebra  
Arilar  
Aristotel  
Arktika  
Armaniston  
Armstrong Nil  
Arslon  
Artist  
Arximed  
Asalari  
Asl metallar  
Assalomu alaykum  
Astronomiya  
Atmosfera  
Atom  
Avesto  
Aviatsiya  
Avstraliya  
Avstriya  
Avtomat  
Avtomobil  
Ayi  
Aylana va doira  
Aysberg  
Azot

**ABDULLA QAHHOR**  
(1907—1968)



Abdulla Qahhor Qo'qon shahrida kosib oilasida tug'ildi. Otasi oq-qorani tanigan savodli odam, temirchi usta edi. Uning o'sha paytlarda bir joyda ish topib muqim ishlashi qiyin kechar, shu uchun qishloqmaqishloq ko'chib yurardi. Bunday ko'chko'chlar tufayli oilasi ham turli joylarda yashashga majbur bo'lardi. Bu haqda yozuvchi «O'tmishdan ertaklar» asarida hikoya qilgandi. Bu holat, tabiiyki, bo'lg'usi adibga ko'p odamlarni ko'rish, g'aroyib voqealarning shohidi bo'lish, xalq hayotini chuqur bilish imkonini bergan. Yosh Abdulla 1919—1924-yillarda boshlang'ich maktab, maktab-internatda o'qidi. Keyin Qo'qondagi pedagogika texnikumida ta'lim oldi. So'ng O'rta Osiyo Davlat universitetining ishchilar fakultetini, pedagogika fakultetini tugatdi.

Uning ijodi 20-yillarning o'rtalarida boshlandi. Dastlab maqolalar, lavhalar, felyetonlar yozib, ularda eski turmushni, ilmsiz, fikran qoloq, yangilikka qarshi turadigan odamlarni fosh qilishga intildi, hayotdagi yangiliklarni ulug'ladi.

Abdulla Qahhor iste'dodli bo'lish bilan birga, havas qilarli darajada tirishqoq, mehnatsevar, ko'p kitob mutolaa qiladigan inson bo'lgan. Undan ikkita roman meros qolgan. Bu romanlarning biri «Sarob», ikkinchisi «Qo'shchinor chiroqlari»dir. «Sarob» romanini yozib tugallaganida 27 yoshda bo'lgan. 20-asrning 20-yillaridagi voqealar, yangilikka moslasha olmagan, xalqning mustamlakachilik zulmi ostida yashashini istamagan, millat taqdiri uchun kurashganlar fojiasi aks ettirilgan bu ro-

man yozuvchini xalqqa tanitdi. 1951-yilda tugallangan «Qo'shchinor chiroqlari» romanida 30-yillarda O'zbekiston qishloqlarida bo'lgan o'zgarishlar qalamga olingan. «O'tmishdan ertaklar» asariga yozgan so'z boshida Abdulla Qahhor rus yozuvchisi A.P.Chexovni ustozim deydi. Darhaqiqat, 30-yillarda Abdulla Qahhor bu adib asarlarini sinchiklab o'qib-o'rgandi va undan ta'sirlanib «Anor», «Bemor», «O'g'ri», «Boshsiz odam», «Jonfig'on», «Dahshat» singari hikoyalarini yaratib, mohir hikoyanavis sifatida tanildi. G'am-g'ussaga to'la bu hikoyalarida, shuningdek «O'tmishdan ertaklar» qissasida yozuvchi mustamlaka zulmi ostida ezilgan xalqimizning 20-asr boshidagi og'ir hayoti, qismatini tasvirlagan.

«Sinchalak» (1958) qissasi ham yozuvchi ijodida muhim o'rin tutadi. O'nlab xorijiy tillarga tarjima qilingan bu asar 20-asrning 50-yillaridagi ayollar ongidagi o'zgarishlar, ularning jamoat ishlaridagi faolligi, hayotda o'z o'rnini topish uchun intilishlari to'g'risidadir.

Adib nasriy asarlardan tashqari dramatik asarlar ham yaratgan. Uning Mirzacho'lni o'zlashtirishga intilgan insonlar hayoti, orzu-o'ylari («Yangi yer» — «Shohi so'zana», 1949—53), poraxo'rlik illatlarini («So'nggi nusxalar» — «Tobutdan tovush», 1962) va keksa avlod bilan yangi avlod o'rtasidagi munosabatlarni namoyon etuvchi («Ayajonlarim», 1967) pyesalari respublikamizdagi va chet ellardagi ko'plab teatrlarda sahnalashtirilgan. Yozuvchi badiiy tarjima bilan ham shug'ullangan.

Abdulla Qahhor 1954—56-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilgan. 1952-yilda «Shohi so'zana» asari uchun Davlat mukofotiga (1952), «O'tmishdan ertaklar» qissasi uchun Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan (1966). O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaroriga muvofiq 2007-yil Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi.



**ABDULLA QODIRIY**  
(1894 — 1938)



Abdulla Qodiriy, o'zbek milliy adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri. U jurnalist, tarjimon sifatida ham mashhur bo'lgan. O'z ijodi davomida ellikdan ortiq adabiy taxallus qo'llagan, shulardan «Julqunboy» taxallusigina mashhur. Ulug' adib Toshkentning Samarqand Darboza dahasida bog'bonlik bilan kun kechiruvchi kambag'al oilada dunyoga keldi. 1904 — 1906-yillar eski maktabda va rus-tuzem maktabida tahsil oldi. Oilasi kambag'allashgani sababli bolalikdan mustaqil mehnat qila boshladi, turli kasblarni egalladi, mahalliy savdogarlarga kotib va yordamchi bo'lib ishladi. Shundan so'ng Eski shahar Ozuqa qo'mitasining bosh kotibi (1918), «Oziq ishlari» gazetasida muharrir (1919), «Ishtirokiyun» va «Qizil bayroq» gazetalarida adabiy xodim, shuningdek «Mushtum» jurnalida tahrir hay'ati a'zosi bo'lib xizmat qildi.

Bo'lg'usi adibning ilk ijodi 1913—1914-yillarda boshlangan. Dastlab u shoir sifatida «Ahvolimiz», «Millatimga», «To'y» kabi she'rlar yozadi. Unda o'z xalqini ilm-ma'rifatga chorlaydi. U o'zining 1915-yilda nashr etilgan «Baxtsiz kuyov» nomli sahna asari bilan dramaturg sifatida ham taniladi.

Abdulla Qodiriy shoir, dramaturg bo'lish bilan birga mohir felyetonchi, hajvchi, hikoyanavis, qissanavis va birinchi romannavis sifatida ham ma'lum va mashhurdir. Adib «Juvonboz», «Uloqda» kabi hikoyalari va «Kalvak mahzumning

xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydi?» kabi hajviy qissalarida jamiyatdagi va odamlar orasidagi nopokliklarni hajv qiladi.

Abdulla Qodiriy eng avvalo adabiyotimiz tarixida birinchi o'zbek milliy tarixiy romanlarini yaratgan adib, san'atkor sifatida katta shuhrat topgan. «O'tgan kunlar» romani adibning shoh asaridir. Xalqimizning 19-asr o'rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy silsilalarga boy murakkab bir davri haqida hikoya qiluvchi bu badiiy go'zal asari bilan Abdulla Qodiriy o'zbek romanchilik maktabiga asos soldi va Alisher Navoiydan keyin o'tgan eng ulug' o'zbek adibi bo'lib qoldi.

Otabek bilan Kumushbibilarning boshdan kechirganlari roman mavzusi asosini tashkil etadi. Xuddi shu bahonda davrning ijtimoiy-siyosiy muhiti ham badiiy umumlashtiriladi. Roman tili nihoyatda boy, jozibali va sermazmun bo'lib, uning o'ta o'qimishli bo'lishini ta'minlagan.

Adibning «Mehrobdan chayon» nomli ikkinchi romanida Qo'qon xoni Xudoyorxon davriga xos adolatsizliklar, fitnafasodlar, qing'irliklar fosh etiladi. Bularga qarshi kurashda Anvar va Ra'nolar ko'rsatgan jasorat ulug'lanadi.

Abdulla Qodiriyning «Obid ketmon» qissasi (1935) esa qishloq hayotidan yozilgan dastlabki yirik nasriy asar sifatida muhimdir.

Abdulla Qodiriy shaxsga sig'inish davrining qurboni bo'ldi. U 1937-yil 31-dekabrda hibsga olinib, ko'p o'tmasdan qatl etilgan. 1956-yilga kelib yozuvchi oqlandi, uning adabiy merosi o'rganila boshlandi. Istiqloq tufayli nomi abadiylashtirilib, ko'chalar, mahalla, maktab, madaniyat uylari, institut adib nomi bilan yuritila boshlandi. Uning asarlari qator xorijiy tillarda nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan Abdulla Qodiriy tavaludining 100 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi.





**ABDULLAYEV  
HABIB  
MUHAMEDOVICH**  
(1912 — 1962)

Abdullayev Habib Muhamedovich tabiat va yer farzandi edi. U yerni ham dehqoncha mehr, ham olimona tuyg'u bilan sevardi. Shu sababli ulug' olimimiz butun umrini yer ilmiga baxshida etdi. Bu yo'ldagi barcha mashaqqatlarni sabot bilan yengdi.

Akademik Habib Abdullayev Oloy tog'lari etagida joylashgan xushmanzara qadimiy Arvon qishlog'ida (hozir shaharcha) o'zbek dehqoni — bog'boni oilasida dunyoga keldi. Ehtimol, qishloq atrofining ajoyib tabiati, uning uyi yaqinida katta konlardan birining topilganligi Habibning qalbida geologiya faniga qiziqish uyg'otgandir. Ana shu qiziqish uni O'rta Osiyo Industriya instituti (hozirgi Toshkent Davlat texnika universiteti)ning geologiya fakulteti sari yetakladi. O'rta Osiyoning tog' toshlari, cho'l dashtlariga da'vat etdi, yer qa'rida necha million yillardan buyon yashirilib yotgan noyob qazilma boyliklarni ilm kaliti bilan ochishga undadi.

U o'zi yirik tadqiqotlar olib borishi bilan birga yosh avlodda, maktab o'quvchilarida ham geologiyaga qiziqish uyg'otishga intilardi. Bolalar gazetalarda yoshlarga murojaat etib, oldindan belgilangan va alpinistik safarlarda, sayohatlarda qazilma boylik konlarini qanday izlash kerakligi haqida soddagina tavsiyalar berardi.

Faqat O'zbekistonda emas, balki umuman O'rta Osiyoda geologiya fani va amaliyotida erishilgan katta muvaffaqiyatlar Habib Muhamedovichning ilmiy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Uning tashabbusi bilan O'zbekiston Fanlar Akademiyasining hozir uning nomi bilan ataladigan Geologiya instituti asosida

geologiyaning turli sohalari bo'yicha to'rtta ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi. Respublikamizning faxri hisoblangan Yadro fizikasi institutining tashkil etilishida ham Habib Muhamedovich fidokorlik ko'rsatdi. Urush yillarida bevosita Habib Muhamedovich ishtirokida O'zbekiston qora metallurgiyasining to'ng'ichi — Bekobod metallurgiya zavodi barpo etildi. Mamlakatimizning mineral xom ashyo bazasini tez sur'atlar bilan rivojlantirish, qazilma boylik konlarini izlash va ularni zudlik bilan ishga solishda Abdullayev o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. U yer osti boyliklarining tarixan tashkil topishi va qaysi qatlamlarda qanday qazilma boyliklar yotishi mumkinligi haqidagi o'z nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga suyanib o'zbekistonlik va chet el geologlari ko'p yangi konlar ochdilar. Geologiya fani sohasida daho darajasiga ko'tarilgan olim Habib Muhamedovich fan yo'lida har qanday qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan fidoyi edi. Ana shu fidoyilik tufayli u jahonga tanildi. Uning Fransiya geologlari jamiyati va Buyuk Britaniya qirollik mineralogiya jamiyatining a'zosi etib saylanganligi ham bejiz emas. Habib Abdullayev geologlarning chet ellarda o'tkazilgan bir qancha xalqaro kongresslarida faol qatnashgan. Asarlari xorijiy tillarga, jumladan, nemis, xitoy va boshqa tillarga tarjima qilingan. Habib Muhamedovich jamoat va davlat ishlarida ishlagan chog'larida ham, O'zbekiston Fanlar akademiyasiga rahbarlik qilganida ham geologiya sohasidagi tadqiqotlarini davom ettirdi. U geologiya sohasidagi ilmiy ishlari uchun respublikada birinchi bo'lib o'sha davrning eng nufuzli davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Olimning geologiya faniga qo'shgan hissasi 1970-yilda Beruniy nomidagi O'zbekiston davlat mukofotiga loyiq deb topildi.

Habib Abdullayev davlat va jamoat ishlari bilan band bo'lishiga qaramasdan, huzuriga kelgan shogirdlari bilan suhbatlashishni kanda qilmas, maslahatlar berar, ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish uchun vaqt topar edi. Abdullayev 130 dan ortiq ilmiy asar, shu jumladan 7ta monografiya yozdi. U o'zining o'lmas asarlari, g'oyalari bilan geologiya fa-

niga ulkan hissa qo'shdi, ayni vaqtda O'zbekiston sha'nini baland ko'tardi.

Habib Abdullayevning o'z farzandlariga murojaat etib aytgan gaplari ayni vaqtda respublikamizning barcha bolalariga aytilgan-dek tuyuladi:

«Bolalarim, hamisha inoq bo'lib yashang, bir-biringizdan hech qachon hech nimani ayamang. Har qanday sharoitda ham bir-biringizni suyang, qo'llab-quvvatlang.... Men o'n ikki yasharligimdan mehnat qila boshlaganman. Mehnatsevar bo'ling, aziz bolajonlarim. Men o'zimning butun umrimni xalqimizga va fanimizga baxsh etdim. Sizlar ham, qayerda va qaysi lavozimda ishlashingizdan qat'i nazar, o'z hayotingizni, mehnatingizni xalqqa bag'ishlang. Halol xizmat qilib, jonajon yurtimizning munosib farzandlari bo'lib yetishing».

Olimning hayoti va ilmiy hamda jamoatchilik faoliyati haqida bir qancha olimlar muallifligida «Esdaliklar» chiqarilgan. O'zbek xalqi ulug' olimning fanga qo'shgan hissasini munosib baholadi. Uning nomiga O'zbekiston FA Geologiya va geofizika instituti hamda Toshkent metrosi bekatlaridan biri, maktab va boshqa ob'yektlar qo'yilgan, yodgorlik taxtasi o'rnatilgan, Toshkentning «Chig'atoy» qabristonidagi qabri ustiga marmar byusti o'rnatilgan. 1992- yil Habib Abdullayev nomida medal ta'asis etilgan. U tug'ilib o'sgan Aravon shaharchasida ham uy-muzeyi, uning nomida ko'cha va maktab bor.

## **AEROPORT**

«Aeroport» so'zi o'zbek tiliga tarjima qilinsa, «havo bekati» degan ma'noni bildiradi. Bizning yerimiz havo okeani — atmosfera bilan o'ralgan. Havo kemalari — samolyotlar, vertolyotlar uni barcha yo'nalishlarda kesib o'tadi. Aeroportlarda uchish mashinalari yukdan bo'shatiladi, ulardan yo'lovchilar tushishadi, ularga yonilg'i to'ldiriladi, yana yuk ortiladi, yangi yo'lovchilar chiqishadi.

... Bizning samolyotimiz qo'nish uchun aeroportga yaqinlashmoqda. Pastda beton yo'llar kesib o'tgan ulkan tekis maydon ko'zga tashlanadi, ba'zan yo'llarning ikki chetida, o'tlar orasida qator chiroqlar ko'rinadi, bu yo'llar samolyotlar qo'nadigan va havoga ko'tariladigan yo'lkalardir. Ulardan har tomonga samolyotlar burilib oladigan ensiz-roq yo'lklar ketgan. Maydon chekkalariga har xil inshootlar qurilgan.

Butunlay oyna va metallardan qurilgan ko'rkam bino — aerovokzal. Ana u minora esa asosiy komanda punkti — dispetcher-xona. Shu yerdan turib dispetcher samolyot uchuvchilari bilan gaplashadi, ularning qaysi yo'lkaga qo'nishlari yoki qaysi yo'lkadan ko'tarilishlari haqida ko'rsatmalar beradi, ularga ob-havo ma'lumotlarini ma'lum qiladi. U radiolokatorlar ekranida atrofdagi bir necha kilometr havo bo'shlig'ini kuzatib turadi. Quyuv tuman tushgan yoki osmonni bulut qoplagan paytlarda dispetcher shu radiolokatorlar yordamida samolyotning qo'nishiga rahbarlik qiladi.

Aerovokzal orqasidagi beton qoplangan katta maydonda qanotli kemalar turibdi, ba'zi samolyotlar oldida yonilg'ili ulkan avtotsisternalar bor. Ulardan samolyotlarga yonilg'i quyilmoqda. Ba'zi samolyotlar oldida yuk mashinalari va transportyorlar bor. Transportyorlarning lentalarida samolyotlarga yuklar ortilmoqda. Mana, samolyot yaqiniga avtobuslar keldi, eshiklari ochilib, odamlar birin-ketin tushishdi. Ular hademay samolyotga chiqib, ko'zlagan manzillariga yo'l olishadi.

.... Bizning samolyotimiz asta-sekin pasayib, aeroportga qo'ndi. Shu zahoti uning eshigiga juda qulay narvon — trap taqaldi. Eshiklar ochilib, yo'lovchilar beton maydonga tushishdi. Ixcham avtobusga tirkalgan vagonchalar — avtopoyezd yo'lovchilarni aerovokzalga olib ketdi. Aerovokzal oddiy temir-yo'l vokzaliga o'xshaydi: bu yerda chipta sotiladigan kassalar, pochta, telegraf, yuk saqlash kameralari, kutish zallari, bojxona, shifokor xonasi, restoran bor.

Aeroport murakkab va gavjum katta xo'jalikdir. Shuning uchun uni, odatda, shahar-





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/3773> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3773> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3773>